

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT
XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**XIZMAT FAOLIYATINI TARBIYAVIY-PSIXOLOGIK
TA'MINLASH KAFEDRASI**

D.M.MAMATKULOV

**“MAKTAB – OTA-ONA – MAHALLA”
HAMKORLIGI ZANJIRINI YARATISH**

uslubiy tavsiyanoma

Toshkent - 2024

“Maktab – ota-on – mahalla” hamkorligi zanjirini yaratish” nomli uslubiy tavsiyanoma. – O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti – T: Jamoat xavfsizligi universiteti nashriyoti, 2024-yil 44-bet.

- Muallif:**
- D.M.Mamatkulov
Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
- Taqrizchilar:**
- R.M.Maxmudov
Jamoat xavfsizligi universiteti Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori, professor
 - O.R.Musaev
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Huquqiy fanlar kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori, professor

Uslubiy tavsiyanomada “maktab – ota-on – mahalla” hamkorligi asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning tarixiy va xorijiy hamda tashkiliy-pedagogik jihatlari yoritilgan.

Mazkur uslubiy tavsiyanoma orqali ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘illanuvchi pedagoglar, ota-onalar hamda mahalladagi sohaga mas’ul shaxslarga ijtimoiy hamkorlik asosida yosh avlodni tarbiyalashning tashkiliy, tarbiyaviy-psixologik jihatlari bo‘yicha qo‘srimcha ma’lumot, taklif va tavsiyalar berish maqsad qilingan.

Mazkur uslubiy tavsiyanoma O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Metodik Kengashining 2024-yil 25-sentabrdadagi 1-son bayonnomaga qarori bilan tasdiqlanib, nashrga tavsiya etilgan.

© D.Mamatkulov, 2024-yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	5
XALQIMIZ TARIXIDA OILA VA FARZAND TARBIYASIGA OID QARASHLAR.....	7
“Avesto” da nikoh, oila va farzand tarbiyasi.....	9
Islom dinida oila va farzand tarbiyasi.....	9
Jaloliddin Rumiyning tarbiyaga oid qarashlari.....	11
Abu Nasr Forobiyning oila va farzand tarbiyasiga oid qarashlari.....	12
Abu Rayhon Beruniyning oilaviy munosabatlар haqidagi qarashlari.....	12
Abu Ali ibn Sinoning oila va farzand tarbiyasiga oid qarashlari.....	13
“Qobusnoma” da ota-onaga hurmat va farzand tarbiyasi.....	14
“Qutadg‘u bilig” va “Hibatu haqoyiq” asarlarida ota-onaga hurmat va farzand tarbiyasi.....	15
Amir Temurning nikoh va oilaga oid qarashlari.....	16
Alisher Navoiyning nikoh, oila va farzand tarbiyasiga oid qarashlari.....	16
Ahmad Donish va Rizouddin ibn Faxruddinning nikoh, oila va farzand tarbiyasiga oid qarashlari.....	17
Faxr-ul Banot Sibhatullox qizining oila va qizlar tarbiyasiga oid qarashlari.....	19
Abdurauf Fitratning oila masalasiga oid fikrlari.....	19
Xalqimiz tarixiy-ijtimoiy hayotida oila qurayotgan kelin va kuyovlarga berilgan pand-nasihatlar.....	20

MAKTAB, OTA-ONA VA MAHALLIY O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISH ORGANLARI HAMKORLIKNI TA’MINLASH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBA.....	25
Finlandiya tajribasi.....	25
AQSh tajribasi.....	26
Singapur va Indoneziya tajribasi.....	28
Xitoy tajribasi.....	30
Rossiya tajribasi.....	32
O‘ZBEKİSTONDA “MAKTAB, OTA-ONA VA MAHALLA” HAMKORLIGINI TA’MINLOVCHI ASOSIY SUBEKTLAR.....	34
“Maktab, ota-onा va mahalla” hamkorligini ta'minlashda Maktab jamoasining roli.....	34
“Maktab, ota-onা va mahalla” hamkorligini ta'minlashda ota-onalarning roli.....	36
“Maktab, ota-onা va mahalla” hamkorligini ta'minlashda Mahallaning roli.....	38
“Maktab, ota-onা va mahalla” hamkorligini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar.....	40
XULOSA.....	43
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	45

KIRISH

Yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ygan O‘zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi inson va uning manfaatlari, xavfsizligi va farovonligini ta’minlashga qaratilgan. Vatanimiz mustaqilligini qo‘lga kiritgach qisqa vaqt ichida bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘li asrlarga arzигulik mazmun va mohiyat kasb etmoqda.

Ma’lumki, taraqqiyotni harakatga keltirishda va jamiyatda ro‘y berayotgan jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazishda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma’naviy yangilanishning muhim sub’ekti bo‘lgan yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Ta’kidlash lozimki, yoshlarni barkamol avlod qilib shakllantirish jarayoni “Maktab, ota-on – mahalla” hamkorligi zanjirini yaratish”ga bevosita bog‘liq. Bugungi axborotlashgan jamiyat va boshqa omillar ta’sirida yoshlar tarbiyasini bilan bog‘liq muammolar tabora ko‘payib borishi hozirda “Maktab, ota-on – mahalla” hamkorligini rivojlantirishning dolzarbligini yanada oshirib yubordi. Qo‘lingizdagi mazkur uslubiy tavsiyanoma yuqoridagi dolzarblik sabab yuzaga kelgan.

Uslubiy tavsiyanoma uch qismidan iborat bo‘lib, birinchi qismda “Xalqimiz tarixida oila va farzand tarbiyasiga oid qarashlar”, ikkinchi qismida, “Maktab, ota-on va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari hamkorlikni ta’minlash bo‘yicha xorijiy tajriba” hamda uchinchi qismida “O‘zbekistonda “maktab, ota-on va mahalla” hamkorligini ta’minlovchi asosiy subektlar”, ularning vazifalari hamda faoliyatiga

zamonaviy yondashuv masalalari qamrab olingan.

Uslubiy tavsiyanomaning asosiy maqsadi ta’lim va tarbiya bilan shug‘illanuvchi pedagoglar, ota-onalar hamda mahalladagi sohaga mas’ul shaxslarga yosh avlodni tarbiyasida ijtimoiy hamkorlik masalalari bo‘yicha tushuncha berish, ularni hamkorlikda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, tahlil qilish va baholash uslubiyoti bilan tanishtirish, shuningdek amaliyotda qo‘llashlariga zamin yaratishga yo‘naltirilgan.

Uslubiy tavsiyanoma yosh avlodni ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘illanuvchi pedagoglar, ota-onalar hamda mahalladagi sohaga mas’ul shaxslarga ta’lim-tarbiya jarayonini ijtimoiy hamkorlik asosida tashkil etish mazmunini tushunishlari hamda amalda qo‘llashlarida o‘zining ijobiy samarasini beradi, deya umid qilamiz.

XALQIMIZ TARIXIDA OILA VA FARZAND TARBIYASIGA OID QARASHLAR

*Farzandlaringizga ta’lim
bering, chunki ular sizniki
bo‘lmagan vaqt uchun
tug‘ilganlar.*

Hadis.

Falsafiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy-g‘oyaviy boy tajriba – xalqimizning ulkan tarixiy merosga egaligidan dalolat beradi. Umuminsoniy taraqqiyotda “Nur Sharqdandur” degan ulug‘ e’tirofga musharraf bo‘lgan Sharq tamadduni inson hayotining tub mohiyati bo‘lgan komillikning yaxlit tizimi, jumladan, nikoh, oila va farzand tarbiyasiga oid ulkvn falsafiy me’rosni yaratishga muvaffaq bo‘ldi.

Ma’naviyati yuksak, e’tiqodi butun, aql-idroki baland, niyatlari ezgu, maqsadlari ulug‘ barkamol shaxs tarbiyasi xalqimiz tamaddunining buyuk vazifalaridan biri bo‘lib kelgan. Jaloliddin Rumiy, Abu Nasr Forobi, Yusuf Xos Hojib, Muhammad Qoshg‘ariy, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Kaykovus, Imom Buxoriy, Imom Termizi, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Bahovuddin Naqshband, Shayx Sa’diy, Hofiz Sheroziy, Amir Temur, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Bobur, Ahmad Donish kabi mutafakkirlarimiz ma’naviy-ahloqiy va ilmiy-falsafiy tafakkuri ma’naviy ibtidoga asoslangan hayot tarzining, komillikka erishishning yaxlit konsepsiyasidir.

Azaldan xalqimiz ijtimoiy hayotida oilaga muqaddas qadriyat sifatida qarab kelingan. Ulug‘ mutafakkirlarning ma’naviy-ahloqiy merosida oila va nikoh munosabatlari, oiladagi shaxslararo munosabatlar, ota-onaning vazifalari, farzandlar tarbiyasi, oila burchi masalalari muhim o‘rin tutadi. Jumladan, xalqimizning «Alpomish», «Kuntug‘mish», «Go‘ro‘g‘li», «Oysuluv», “Orzigul”, «Layli va Majnun», «Yusuf va Zulayxo» kabi buyuk epos va dostonlarida erkak va ayol o‘rtasidagi sof insoniy munosabatlar, futuvvat, insonparvarlik, muxabbatga sadoqat, yorga vafo mavzulari tarannum etilgan. Dostonlar qadimgi davrlarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash an’analari haqida tasavvur va ma’lumot beradi.

Xalqimiz ijtimoiy tafakkurida ayol doimo erkak kishiga do‘sit, yor, oqila, oilaviy fayzning timsoli sifatida ulug‘langan. Ayol oilaga fayz bag‘ishlovchii farishta timsoliga aylangan. Milliy qadriyatlarda, nikoh tuzishga oid odatlarda yigitning jismoniy qobiliyatlariga alohida ahamiyat berilgan hamda qizga munosib ekanligini aniqlash uchun o‘zaro ot poygasi, kamondan nishonga o‘q uzish, kurash tushish kabi bellashuvlar o‘tkazilgan. Ushbu tanlovlardan «Qiz quvmoq», «Tortishmachoq» kabi xalq o‘yinlarida o‘z ifodasini topgan.

Bugungi kunda, xalqimizning ming yillar davomida shakllangan nikoh, oilaviy munosabatlar, ta’lim muassasasi hamda mahallada yoshlar tarbiyasiga oid ilmiy-pedagogik qarashlarni o‘rganish hamda ulardan “Maktab – ota-onsa – mahalla” hamkorligi zanjirini yaratishda unumli foydalanish juda muhim hisoblanadi.

«Avesto»da nikoh, oila va farzand tarbiyasi

Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da tarannum etilgan oila va nikoh odoblari, ota-onalar va farzandlar munosabati, ularning burch va vazifalari, uylanish va kelin tanlash, homilador ayolni davlat o‘z muhofazasiga olishi zarurligi xususidagi g‘oyatda qimmatli fikrlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Shuningdek, «Avesto»da oila -nikoh munosabatlari, er-xotinning oiladagi burchi va farzand tarbiyasi xususida bir qator fikrlar bayon qilingan. Unda qarindoshlarning o‘zaro oila qurishi qat’iy man etilgan. Qavm va urug‘ qonini toza, avlodni benuqson saqlash uchun shunday qilingan. Unda homilador ayollarni davlat o‘z muhofazasiga olishi kerakligi, ko‘p bolali oilalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash lozimligi, bir necha farzand dunyoga keltirgan ayollar mukofot olishga sazovor ekanligi uqtiriladi.

Islom dinida oila va farzand tarbiyasi

Xalqimiz tafakkuriga ulkan ta’sir ko‘rsatgan Islom ta’limotida ham oila muqaddas sanalib, oilaviy munosabatlar, oilada farzand tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, Qur’oni karimda «*Allah sizlar uchun o‘zlaringizdan juftlar yaratib, juftlaringizdan sizlar uchun o‘g‘illar va nabiralar paydo qildi va sizlarni pok narsalardan rizqlantiradi...*» degan oyati karima nozil qilingan. Islomiyatning buyuk

elchisi tomonidan esa, ummatning haq yo‘lda barqaror bo‘lishi uchun: «*Uylaninglar, ko ‘payishinglar, chunki men qiyomat kunida ummatimning ko ‘pligi bilan faxrlanaman*», deya marhamat etilgan.

Islom dinida bo‘lajak oilaning vujudga kelishiga alohida e’tibor berilgan hamda farzandlarning nasli pok bo‘lishini hisobga olingan. Kelin yoki kuyov qilmoqchi bo‘lgan har bir ota-onaning bo‘lajak qudalar naslini surishtirishlari yohud har bir musulmon o‘zining «yetti pushti» ni bilishi lozim, degan talablar ham islom ma’naviyatidan kelib chiqqan.

Oila qurish Islomdan oldin ham bo‘lgan, lekin oilada arning va ayolning huquqlari va mas’uliyatlarini tom ma’noda Islom dini ko‘rsatib berdi. Jumladan, payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v. “*Jannat – onalar oyog‘i ostidadir*”, – deb marhamat qilganlar. Shuningdek, ota-onani rizoligini olish borasida: “*Alloh taoloning rozi bo‘lishi ota-onaning rozi bo‘lishiga va Allohnинг g‘azabi ham ota-onaning g‘azabiga bog‘liqdir*” deya buyurganlar (Imom Buxoriy rivoyati).

Diniy qadriyatlarda kattalar, xususan, ota-onalarning yosh kelin-kuyovlarga oilaviy turmush haqida pand-nasihat qilishlari, hayotiy tajribalarni so‘zlashlari odat tusiga kirib qolgan. Ayniqsa, kelinlarga qilingan nasihatlar qo‘lyozmalarda saqlanib qolgan.

Jumladan, ulkan sahobiy Anas ibn Molik roziyallohu anhu: «*Nabiy sollallohu alayhi vasallamning sahabalari yangi kelinlarga erining hurmatini va xizmatini qilishga buyurar edilar*», – deganlar.

Jaloliddin Rumiyning tarbiyaga oid qarashlari

Muazzam siymo, o‘z ijodi orqali Sharq va G‘arb tamadduni rivojiga betakror hissa qo‘shgan Jaloliddin Rumiy adabiy merosida ma’naviy kamolot, ahloqiy tarbiya masalalari markaziy o‘rin tutadi:

Tilingdan oldin qalbingni tarbiya qil. Chunki so ‘z qalbdan kelib, tildan chiqadi.

Ming yil o‘qisamu, mendan «nimani bilding», deb so ‘rasalar, «haddimni bildim» deyman.

Gulning go ‘zalligi urug ‘idan; insonning husni esa qalbidandir.

Ko ‘nglingni poklamabsan-ku, tinmay tahorat olganing nimasi?!

Odamlar suratini bezatsa, sen siyratingni beza. Odamlar boshqalar aybidan so ‘z ochsa, sen o‘z qusuringni o‘yla.

Poktiynat kishilar suhbatidan bahramand bo ‘lmoq, podshohlar boshiga toj bo ‘lmoqdan afzaldir.

O ‘ylaring so ‘zlaringga, so ‘zlaring fe ‘lingga, fe ‘ling taqdiringga nuqs etadi. Go ‘zal o ‘yla, go ‘zal yasha.

Inson tabassumi bilan tarbiyasini, nimaga kulgani bilan saviyasini namoyon qiladi.

Bizni bilgan biladi, bilmagan o ‘zi biladi.

Dunyo tuzoqdir, doni hoyu-xavasdir.

Kitob o ‘qishdan oldin o ‘zimizni o ‘qishni o ‘rganaylik.

Hayot uyqudir, o ‘limla uyg ‘onur inson. Sen shoshil, o ‘lmasdan avval uyg ‘on.

Abu Nasr Forobiyning oila va farzand tarbiyasiga oid qarashlari

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy inson kamoloti, baxti, ta’lim va tarbiyasi, axloqi, dinga munosabati haqidagi qarashlarini «Fozil odamlar shahri» va «Baxt-saodatga erishuv haqida» asarlarida bayon etadi. Forobiy bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan keraksiz urf-odatlardan voz kechish, baxt-saodatga erishish yo‘llari haqida gapirib, shunday deydi: «*Rahbarlar (er yoki xotin) «yomon odatlarni o‘zida ifodalovchi o‘tmishni ham o‘zgartirmog‘i kerak. Aks holda o‘tmish talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday yengillik, o‘zgarish va o‘sish ham bo‘lmaydi.*» Shuningdek, «*Baxt saodatga erishuv yo‘lida nimaiki (bilim, odob-axlok, kasb-hunar) yordam bersa, uni mustahkamlamok, nimaiki zararli bo‘lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat kilmok zarur*» ligini ta’kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniyning oilaviy munosabatlar haqidagi qarashlari

Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Rayhon Beruniyning oilaviy munosabatlar haqidagi qarashlari ham alohida e’tiborga loyiq. Beruniy o‘z qarashlarida, ayniqsa, xotin-kizlar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratadi. O‘zining «Minerologiya» nomli traktatida oila qurayotgan kizlarga ota-onaning nasihatlarini keltirib, oiladagi tinchlik-totuvlik, baxtiyorlik ko‘prok ayollar zimmasiga tushishini ta’kidlaydi va shunday yozadi: «*Ey qizim! Sen o‘rgangan uyingdan ketib, notanish xonadonga*

tushmoqdasan. Bo'lajak kuyovingning hamma hislatlarini bilmaysan. Sen yer bo'l, u esa osmon bo'ladi. Demak, sen u bilan shunday yo'l tutki, uning oldida yer kabi kamtar bo'lsang, u osmon kabi oljanob bo'ladi». Beruniy o'z qarashlarida oila tinchi bevosita oqila, aqlli, farosatli, tarbiyalı ayollar qo'lida ekanligiga alohida ahamiyat qaratgan.

Abu Ali ibn Sinoning oila va farzand tarbiyasiga oid qarashlari

Ulug' alloma Abu Ali ibn Sino ilmiy ta'limotida oilaviy munosabatlar masalalari diqqatga sazovor o'rin tutadi. Uning «Tadbiri manozil» asarida millat qizlari va ayollarning yaxshi xulqli bo'lishi haqida so'z boradi va quyidagi xususiyatlarga ega bo'lish ta'kidlanadi:

- *iymon-e'tiqodli bo'lsin;*
- *bilimli bo'lsin;*
- *nomusli, sharm-hayoli bo'lsin;*
- *tabiatan jasur bo'lsin;*
- *erini qattiq sevsin;*
- *tug'ish va bola tarbiyasi haqida o'ylasin;*
- *ezma bo'lmasin;*
- *o'z eriga bo'ysunsin;*
- *to'g'ri, kamtar va farosatli bo'lsin;*
- *hech qachon o'z sha'niga dog' tushirmasin;*
- *eri bilan ehtiyyot bo'lib, uning hurmatini joyiga qo'yib, xushmuomala bo'lishi shart;*

- *o‘z vazifasini va burchini yaxshi bilsin;*
- *oila xo‘jaligidagi narsalardan to‘g‘ri, tejab foydalanishni bilsinlar.*

Alloma o‘zining “Ishorat”, “Solomon va Ibsol” kabi asarlarida tarbiya masalalariga keng to‘xtalgan. Jumladan, ibn Sino bola tug‘ilmasdan turib unga g‘amxo‘rlik qilish, ya’ni ota-onaning jismonan va ruhan pok bo‘lishi, onani xomilador bo‘lishiga tayyorlash hamda bolani xomila davridanoq onasi orqali parvarishlash, farzand tarbiyasida mehnatning roli, aqliy, ahloqiy, estetik va jismoniy tarbiyada uзвиy va yaxlitlikni ta’minlash haqida halqimizga qimmatli ma’lumotlar qoldirgan.

“Qobusnomा” da ota-onaga hurmat va farzand tarbiyasi

Kaykovusning “Qobusnomা” sida ota-onaga ehtirom va hurmat borasida quyidagi pand bor: “*Ey farzand, bilgilkim, aql yuzasidin farzandga ota-onani izzat va hurmat qilish vojibdur, nedinkim, uning asli ota va onadur. Ota va onani nima uchun hurmat qilurman, deb ko‘nglingga kelturmagil, bilgil-ki, ular sening uchun o‘limga ham tayyor turadurlar. Har farzandki, oqil va dono bo‘lsa, hech vaqt ota-onaning mehr haqini ado qilmoqdin holi bo‘lmagusidur. Ota-ona farmonbardordur. Bu farmonbardorlikda ham ish bo‘lgay.*

Ey farzand, shul vajdin ota-onangni sag‘al ham ranjitmagil. farzanding sening haqingda qanday bo‘lishin tilasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo‘lgil, nedinkim, sen ota-onangga nima ish

qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki odam mevaga, ota-onaga daraxtga o'xshaydur. Ota-onaga izzat va hurmatni qancha ko'p qilsang, ularning duosi shuncha tezroq mustajob bo'lur".

“Qutadg‘u bilig” va “Hibatu haqoyiq” asarlarida ota-onaga hurmat va farzand tarbiyasi

Xalqimizning buyuk allomasi Yusuf Xos Xojibning mashxur “Qutadg‘u bilig” asarida ota-onaga hurmat, inson shaxsiga xos sifat va fazilatlarning oilaviy hayotni boshqarishdagi ahamiyati, umr yo‘ldosh tanlashda uning qaysi sifat va fazilatlariga e’tibor berish zarurligi, farovon turmush kechirishning muhim shartlari haqida qimmatli fikrlar keltiriladi.

Xalqimizning zabardast didaktik shoiri Ahmad Yugnakiy shox asari – “Hibatu haqoyiq” ni komillik, ilm, ma’rifat, tarbiya, baxt-saodat masalalariga bag‘ishlagan:

Bilik birla bilinur saodat yo‘li,

Bilik bil saodat yo‘lini bo‘la. (Bilim bilan baxt-saodat yo‘li ochiladi, bilimni egallab saodat yo‘lini top, unga erish).

Biliklik er o‘ltu, oti o‘lmatu,

Biliksiz esan erkan oti o‘luk.

(Bilimli er o‘lsa ham oti o‘lmaydi, bilimsiz kishini hayot chog‘ida ham uning oti o‘lmaydi).

Amir Temurning nikoh va oilaga oid qarashlari

Sohibqiron va buyuk sarkarda Amir Temur ham oila qurish masalalariga davlat yumushlaridek juda jiddiy e'tibor bergan. Jumladan, "Tuzuklar" da kelin tanlash haqida quyidagi qimmatli fikrlar bildirilgan: «*O‘g‘illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e’tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko‘rdim. Kelin bo‘lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog‘ligini, jismoniy kamolotini aniqladim. Kelin bo‘lmish nasl-nasabi, odob-ahloqi, sog‘ligi bilan barcha qusurlardan holi bo‘lsagina el-yurtga katta to‘y-tomosha berib, kelin tushurdim.*».

Alisher Navoiyning nikoh, oila va farzand tarbiyasiga oid qarashlari

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning muhabbat, vafo, burch, ahloqiy fazilatlarning oilaviy hayotdagi ahamiyati haqidagi qarashlari beqiyosdir. Navoiy «Mahbub-ul-qulub» asarining «Uylanish va xotinlar to‘g‘risidagi» faslida mutafakkir uylanish va uning foydasi, oila odobi va oilada ayollarning fazilatlari haqida ajoyib fikrlarni bayon etgan. Jumladan, u ayolning turmushdagi hissasiga quyidagicha to‘xtaladi: «*Yaxshi xotin - oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi undan, uy egasining hotirjam va osoyishtaligi undan. Xusnli bo‘lsa - ko‘ngil yozig‘i, xushmuomala bo‘lsa - jon ozig‘idir. Oqila bo‘lsa, ro‘zg‘orda tartib-intizom bo‘ladi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi.*».

Alisher Navoiyning ulkan ma’naviy merosida farzand tarbiyasи, ilm-ahloqqa oid juda ko‘plab xikmatlarni topish mumkin:

*Yigitlikda yig‘ilmning mahzanin,
Qarilik chog‘i sarf etgil ani.*

*Boshni fido qilg‘il ato boshiga,
Jismni qil sadqa ano qoshig‘a.
Tun kuningga aylagali nur fosh,
Birisin oy ayla, birisin quyosh.*

*Bu gulshan aro yo‘qdir baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur gar yaxshilik birla qolsa ot.*

*Odami ersang demagil odami,
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.*

*Har kim ayon etsa yaxshi qiliq,
Yetar yaxshilikdin anga yaxshilik.*

Ahmad Donish va Rizouddin ibn Faxruddinning nikoh, oila va farzand tarbiyasiga oid qarashlari

XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan sharq mutafakkirlaridan biri Ahmad Donish o‘zining «Navodir ul-vakoe»

(«Nodir voqealar») nomli asarida «Nikoh odoblari bayoni, uylanish shartlari, qaynona va kelinning xusumati» haqida batafsil bayon qilgan.

Mutafakkirning fikricha, inson muayyan yoshga yetgandan keyin unda oila qurish, uylanishga zarurat paydo bo‘ladi. Albatta, bu davrda inson oila, oilaviy baxt, er-xotinlik, farzandlik, ota-onalik burchlari haqida tushunchaga ega bo‘ladi. Darhaqiqat, donishmand ayolni sevmoq, hurmat qilmoq har bir erkak (er)ning vazifasi ekanligini aytib o‘tadi.

Oilaviy baxt insonlarning orzu-istiklari, maqsadlariga yetishib yashashdir. Ahmad Donish oilaviy baxt ko‘prok xotinlarga bog‘lik, chunki erkak uchun soliha xotindan ortiqroq hech bir ne’mat yo‘qdir, oiladagi inoqlik, totuvlik, saranjomlik ular qo‘lidadir, degan fikrlarni ilgari suradi hamda oila qurish motivlarini kengrok yoritib beradi.

XX asrning boshida yashab ijod etgan olim Rizouddin ibn Faxruddining «Oila» asarida odob-ahloq, oila va nikoh, oiladagi o‘zaro munosabatlar, ota-onaning vazifalari, farzandlar burchi, bola tarbiyasidagi ayolning roli, ayollarning umumiyl vazifasi, uylantirishda ota-onaning vazifalari xususida g‘oyatda ibratli maslahatlar va tavsiyalar berilgan.

Olim mazkur asarda uylanish va xotinlar vazifasi borasida quyidagilarni ta’kidlaydi: «... *uylanish masalasini islom shariati buyuk narsalardan deb bilib, oila tuzishni mamlakat tashkil qilish qadar kerakli hisoblab, bu borada bir qancha nizomlar ham chiqqanligi ma’lum. Oila uchun chiqqan nizomlarni, bir kun kelib, vaqtি yetganda amal etuvchilar o‘z oilalarini ko‘rkam ravishda tuzar va nihoyat, ushbu*

kichkina mamlakatni idora qila olurlar. Shu sababdan, umrlarini rohat bilan kechirishar va umrlaridan qolgan sanoqli soatlari barokatli bulur. Xotunlari tarbiyali bo‘lgan xalq - tarbiyali-yu, xotunlari tarbiyasiz bo‘lgan xalq tarbiyasiz, xotunlari tirishqoq, tadbirkor, irodali bo‘lgan xalq - boyu, xotunlari yalqov yoki isrofgar xalq faqir bo‘lishi aniqdir».

Faxr-ul Banot Sibhatulloh qizining oila va qizlar tarbiyasiga oid qarashlari

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab o‘tgan olima Faxr-ul Banot Sibhatullox qizining «Qizlar tarbiyasi», «Oila saboqlari» kabi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan asarlari mavjud. Olimaning «Oila saboqlari» risolasida xotin-qizlarning tarbiya, ahloq, odob masalalari, uy-ro‘zg‘or va bola tarbiyasi, salomatlik va oila sihatini saqlash xususida, qarindoshlar munosabati, qaynona-kelin munosabati, kelinning vazifalari haqidagi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan pand-nasihatlar o‘rin olgan.

Abdurauf Fitratning oila masalasiga oid fikrlari

Turkiston jadidchilik harakatining ulkan namoyandalaridan biri Abdurauf Fitrat oila masalasiga va uning jamiyat hayotidagi tutgan o‘rniga alohida e’tibor qaratadi. Allomaning «Oila yoki oila boshqarish tartiblari» asarida oila ko‘rish zaruratidan tortib, oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, ota-onas, farzandlarning huquq va burchlari, farzand

tarbiyasi haqidagi qarashlari chuqur yoritib berilgan. Donishmand mazkur asarda uylanish va bo'lajak er-xotin, birinchi navbatda, nimalarga ahamiyat berishi lozimligi haqida qimmatli fikrlarini ilgari suradi.

Adibning «Oila» asarida uylanmoq zarur bo'lganda qanday xotinni tanlash lozimligi, maxr va to'y qanday bo'lishi kerakligi, er-xotinning qanday yashamoqliklari, ota-onaning xaq-huquqlari va qizlarning ilm olishlari xususidagi qimmatli fikrlari diqqatga sazovordir. Fitrat mazkur asarda oilaviy xayotning mohiyati haqida fikr yuritib, oxir oqibatda millat taqdiri oilalar holatiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi: *“Har bir millatning saodati va izzati albatta shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog’liq. Tinchlik va totuvlik ana shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat xam shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi”*.

Fitratning talqinida, oila uch muhim tarkibga ega:

1. Er.
2. Xotin.
3. Farzandlar.

Farzand nafaqat ota-onada hayotining davomchisi, balki ayni paytda millatning ham sha'ni, obro‘ va e'tiborini belgilaydi.

Xalqimiz tarixiy-ijtimoiy hayotida oila qurayotgan kelin va kuyovlarga berilgan pand-nasihatlar

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, xalqimiz tarixiy-ijtimoiy hayotida oila qurayotgan kelin va kuyovlarga saodatli oila asoslarini

bayon qiluvchi quyidagi pand-nasihat berilgan. Avvalo, kelin bo‘layotgan qizlarga:

«*Ey qizginam! Agar ahli fazlga nasihat kerak bo‘lmaganida, senga ham nasihat qilmasdim. Lekin nasihat – g‘ofilga eslatma, oqilga yordamdir. Agar qiz bola ota-onasining kambag‘alligi sababligina erga berilishi kerak bo‘lganida, sen hech qachon uzatilmagan bo‘lar eding. Chunki otangning boyligi, martabasi yetarlidir. Lekin Alloh belgilab bergen hayot qonunlariga ko‘ra, ayollar erkaklar uchun va aksincha, erkaklar ayollar uchun yaratilganlar.*

Qizginam! Endi sen o‘zing o‘sigan havodan ayrilding. O‘zing yayrab-yashnagan oshyondan chiqding va notanish joyga borib, avval o‘zing bilmagan sherikka uchraysan. U endi sening xojang, do‘sting va mahbubingdir.

Sen uning uchun quyidagi o‘n xislatni ado etsang, oilada mas’ud va baxtiyor hayot kechirasizlar:

1. *Qanoat sohibasi bo‘l, undan hayiqib tur. Ering uyga nima ko‘tarib kelsa, xushfe’llik va odob-nazokat bilan qabul qilib ol, tashakkur ayt.*

2. *Eringga hamisha itoatda bo‘l, amrlarini yaxshilab tingla va bajar.*

3. *Eringning nazari tushadigan joylarga e’tibor qil. U senda xunuklik ko‘rmasin. Uy ichi va hovlini nihoyatda ozoda va tartibli tut.*

4. *Eringning burniga hushyor bo‘l. Dimog‘iga sendan yomon hid kirmasin, faqat xushbo‘ylik sezsin.*

5. *Ovqatni vaqtida tayyorla, aslo kechiktirma. Ering uyga kelishi bilan, dasturxon sol.*

6. *Uning uyqu vaqtini, uyg'onish paytini bilib ol. Chunki ochlik va uyquning buzilishi erkaklarning g'azabini qo'zg'aydi.*

7. *Xojangning moli va ashyosiga e'tiborli bo'l, isrof qilma, avaylab asra!*

8. *Eringning qarindoshi va yaqinlarini izzat-hurmat qil. Bu bilan xojangni hurmat qilgan bo'lasan.*

9. *Eringning sirlarini boshqalarga aytuvchi bo'lma, uning ishonchini yo'qotasan.*

10. *Xojangning amriga osiy bo'lma, uning dinga to'g'ri keladigan barcha buyruqlarini ado qil. Shuni yaxshi bilib olki, xojang xafa bo'lganda xursand ko'rinishdan, u quvongan paytda g'amgin bo'lishdan o'zingni ehtiyyot qil!».*

Xalqimiz ijtimoiy tafakkurida oila qurayotgan kuyovlarga beriladigan pand va ko'rsatmalar ham o'z o'rnida bo'lgan. Jumladan, ularga qarata:

Ayol kishining o'zgacha tafakkur uslubi mavjud. Uning nafsoniyatini fahmlash va ehtiromini qozonish uchun quyidagi nasihatlarga amal qilish zarur bo'ladi:

- ayol kishining tafakkurini, uning tabiatini, boshqacha yaratilganini hurmat qilish;
- uni e'tiborsiz qoldirmaslik, muhabbat, mehr va omonlik hadya etish;

- *ayolning shikoyatlarini e’tiborsiz qoldirmaslik, har doim ma’naviy qo’llab-quvvatlash;*
- *unga hadyalar berish, sovg‘alar taqdim qilish;*
- *oila ahlini ziyorat qilishiga ijozat berish;*
- *rashk ayollik izzat-nafsi rozi qilib turuvchidir, shuning uchun ba’zan rashkni bildirib turish;*
- *ayolga lutf ko’rsatish;*
- *uning ayblarini yuziga solmaslik;*
- *uning fikrlarini hurmat qilish;*
- *unga xiyonat qilmaslik, zero ayol uchun eng og‘ir narsa erining xiyonat qilishidir.*
- *uning o‘zini ham, his-tuyg‘ularini ham masxara qilmaslik;*
- *uning talablarini unutmaslik, qadr-qiyomatini o‘rniga qo‘yish;*
- *undan yordamni ayamaslik, zotan ayol zoti doimo o‘zi ishonadigan va suyanadigan shaxsga muhtojdir;*
- *oilaviy mas’uliyat va va ’dalarga amal qilish;*
- *uyning mayda-chuyda ishlariga ko‘p aralashmaslik, bu borada ayolga ishonch bildirish;*
- *ayol kishining homiladorlik, farzand dunyoga keltirish kabi og‘ir holatlarni boshidan o‘tkazishini aslo unutmaslik va o‘scha paytlarda unga yanada ko‘proq mehribon bo‘lish;*
- *uning shaxsiy erkinligini ko‘p cheklamaslik.*

Yuqorida keltirilgan xalqimiz tarixida nikoh, oila va farzand tarbiyasiga oid ijtimoiy-ma’naviy meros bugungi axborot jamiyati, globallashuv va ma’naviy tahdidlar davrida ayniqsa o‘ta dolzarb va

qimmatlidir. Jamiyat hayotida, oilaviy tarbiyada, ta’lim jarayonida ajdodlar ma’naviy merosida tarannum etilgan umuminsoniy qadriyatlar, odamiylik, mardlik, muruvvat, mehr-oqibat, sahovatpeshalik, xushmuomalalik, halollik, rostgo‘ylik, ma’rifatparvarlik, mehnatsevarlik kabi yuksak fazilatlarni unib-o‘sib kelayotgan yosh avlod tafakkurga singdirish xalqimizning buguni va ertasi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega¹.

¹ Mazkur bo‘lim “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti xodimi, falsafa doktori, dotsent Mohira Xoliqovaning ilmiy maqolasi asosida tayyorlandi.

MAKTAB, OTA-ONA VA MAHALLIY O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISH ORGANLARI HAMKORLIKNI TA’MINLASH BO‘YICHA XORIJIY TAJRIBA

Finlandiya tajribasi

Finlandiya ta’lim tizimi o‘zining yuqori sifatli ta’limi va ijtimoiy hamkorligi bilan mashhur. Maktab – ota-ona va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari hamkorligini ta’minalash uchun Finlandiya quyidagi amaliyotlar va yo’nalishlardan foydalanadi:

Ochiq muloqot: Finlandiyada maktablar va ota-onalar o‘rtasida samimiy aloqa o‘rnatish juda muhimdir. Maktablar ota-onalar bilan muntazam uchrashuvlar, seminarlar va tadbirlar o‘tkazadi, bu orqali ota-onalar ta’lim jarayonida faol ishtirok etishga undaladi.

Ota-onalar uchun qo‘llab-quvvatlash: Maktablar va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarida ota-onalar uchun turli kurslar va treninglar tashkil etiladi. Bu orqali ularga farzandlarini tarbiyalashda yordam beradigan bilim va ko‘nikmalar beriladi.

Mahalliy jamoa bilan integratsiya: Maktablar mahalliy jamoalar bilan yaqindan hamkorlik qilinadi. Mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari madaniyat, san’at va sport tadbirlari orqali ota-onalar va maktab o‘quvchilarni o‘z faoliyatiga jalb etadi.

Ta’lim mexanizmlarini qo‘llab-quvvatlash: Finlandiyada ta’lim jarayonida diplomatik va ijtimoiy masalalar bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Bular maktablar orqali yo‘lga qo‘yilib, ota-onalarning farzandlari bilan yaqin munosabatda bo‘lishlariga yordam beradi.

Jamoaviy loyiha va tadbirlar: Ota-onalar, o‘qituvchilar va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari vakillari birgalikda loyiha va tadbirlar tashkil qilishadi. Bu kabi tadbirlar ta’lim jarayonini boyitadi va ijtimoiy, axloqiy qadriyatlarni oshirishga yordam beradi.

Ta’lim va sog‘liqni saqlashning integratsiyasi: Finlandiyada ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlari o‘rtasida yaqin aloqalar o‘rnatilgan. Psixologlar va sog‘liq mutaxassislari maktablarga kirib, o‘quvchilarga va ota-onalarga sog‘liq va ruhiy salomatlik masalalarida yordam beradi.

O‘qituvchilarни tayyorlash: Finlandiyada o‘qituvchilar ta’lim jarayonida ota-onalar bilan ishlash uchun alohida o‘qitiladi. Bu jarayonda o‘qituvchilar ota-onalar bilan muloqot qilish va ularga kerakli ko‘makni ko‘rsatish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi.

Yuqoridagi amaliyotlar Finlandiyaning maktab – ota-onalar va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari o‘rtasida hamkorlikni ta’minlashdagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Natijada, bunday yondashuv nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga integratsiyalashishiga ham katta yordam beradi.

AQSh tajribasi

AQShda maktab – ota-onalar va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari hamkorligini ta’minlash ta’lim tizimining muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Bu yondashuv ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarni muvaffaqiyatli qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga

ega. AQShda quyidagi strategiyalar va faoliyatlar bu hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan:

